

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI**

**KASBIY TA'LIM AGENTLIGI**

**KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**



**«TASDIQLAYMAN»**

kasbiy ta'limni rivojlantirish  
instituti direktori

X. Kadirov

2026 yil

**“TA'LIMDA BOSHQARUV”**

**kafedrası**

**PSIXOKORREKSIYA ASOSLARI**

fani bo'yicha

**ISHCHI O'QUV DASTURI**

**Ta'lim turi:**

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

**Tinglovchilar  
toifasi**

Nomutaxassis oliy ma'lumotli shaxslar

**TOSHKENT**

Mazkur ishchi o‘quv dastur Nomutaxassis oliy ma’lumotli shaxslar bo‘yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi o‘quv rejasi va namunaviy o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:**

N.A.Roziqova

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,  
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,  
P.f.f.d. (PhD)

**Taqrizchilar:**

M.Dadaxodjayeva

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti,  
“Ta’limda boshqaruv” kafedrası dotsenti,  
Psixologiya fanlari nomzodi

U.B.Mamanazarov

Oriental Universiteti “Uzluksiz ta’lim  
pedagogikasi” kafedrası katta  
o‘qituvchisi, Psixologiya fanlari falsafa  
doktori (PhD)

Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti Ilmiy-pedagogik kengashida ma’qullangan.  
202\_\_yil \_\_\_\_-sonli bayonnoma.

## I. TUSHUNTIRISH XATI

Zamonaviy jamiyatda shaxsning psixologik salomatligini saqlash, rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish va shaxsiy imkoniyatlarni to'liq ro'yobga chiqarish masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turli yosh davrlarida uchraydigan emotsional buzilishlar, xulq-atvordagi og'ishlar, muloqotdagi qiyinchiliklar hamda ijtimoiy moslashuv muammolari bilan ishlashda psixokorreksiya muhim amaliy yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, amaliy psixologlarni tayyorlashda psixokorreksion ishlarni tashkil etish va olib borish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 23 iyulda "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 106-son Qarori hamda Kasbiy ta'lim tashkilotlari Amaliyotchi psixologi huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining namunaviy o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur fan tinglovchilarda shaxs rivojlanishidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan psixokorreksion yondashuvlar bo'yicha nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Fan doirasida psixokorreksiyaning nazariy asoslari, tamoyillari, vazifalari va asosiy yo'nalishlari o'rganiladi.

Shuningdek, individual va guruh psixokorreksiya metodlari, emotsional buzilishlar, xulq-atvor og'ishlari, kommunikativ qiyinchiliklar hamda moslashuv muammolarini korreksiya qilish texnologiyalari keng yoritiladi. Tinglovchilar psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish, mashg'ulotlarni rejalashtirish, korreksion ta'sir usullarini tanlash, samaradorlikni baholash va natijalar

monitoringini amaliy jihatdan o'zlashtiradilar.

Fanni o'zlashtirish jarayonida nazariy bilimlar amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bilan uyg'unlashtiriladi. Bu esa tinglovchilarda turli psixologik muammolarni tahlil qilish, psixokorreksion ishlarni rejalashtirish va amaliyotda samarali qo'llash bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu o'quv fani o'quv yuklamasi 72 soat bo'lib, shundan:

Jami auditoriya o'quv yuklamasi	- 72 soat
Jumladan: Nazariy mashg'ulotlar	- 12 soat
Amaliy mashg'ulotlar	- 36 soat
Laboratoriya mashg'uloti	- 24 soat

## II. FANNING NOMI VA MAQSADI

**2.1. Fan nomi:** Psixokorreksiya asoslari.

**2.2. Fan maqsadi:** Tinglovchilarda shaxs rivojlanishida uchraydigan psixologik muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan psixokorreksion yondashuvlar bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish, shuningdek, individual va guruhiiy psixokorreksiya usullarini amaliyotda qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish.

**2.3.** Tinglovchilar ushbu fanni o'rganish natijasida milliy malaka tizimiga taalluqli quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

<b>Bilim</b>	<b>Ko'nikma</b>	<b>Kompetensiya</b>
Psixokorreksiya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va asosiy tushunchalari.	Psixologik muammolarni aniqlash va tahlil qilish.	Turli psixologik muammolar bilan ishlashda psixokorreksion yondashuvlarni qo'llash.
Psixokorreksiyaning nazariy asoslari, tamoyillari va asosiy yo'nalishlari.	Psixokorreksion ish uchun mos usul va metodlarni tanlash.	Psixokorreksion ish uchun mos usul va metodlarni qo'llash.
Shaxs rivojlanishidagi psixologik muammolarni aniqlash usullari.	Individual va guruhiiy psixokorreksion mashg'ulotlarni rejalashtirish.	Shaxsning emotsional, xulqiy va kommunikativ qiyinchiliklarini korreksiya qilish.
Individual va guruhiiy psixokorreksiya metodlarining mazmun-mohiyati.	Emotsional va xulqiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan mashqlardan foydalanish.	Psixokorreksion mashg'ulotlarni mustaqil tashkil etish va o'tkazish.
Emotsional buzilishlar, xulq-atvor og'ishlari, kommunikativ qiyinchiliklar va moslashuv muammolarini korreksiya qilish texnologiyalari.	Psixokorreksion dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish.	Kasbiy faoliyatda psixokorreksion texnologiyalardan samarali foydalanish.

Psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish va samaradorligini baholash asoslari.	Korreksion jarayon natijalarini baholash va monitoring qilish.	Psixokorreksion ish samaradorligini tahlil qilish va amaliy xulosalar chiqarish.
--	--	--

#### 2.4. Fan bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Mavzular	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat						
		Hammasi	Auditoriyalardagi o'quv yuklamasi					Mustaqil ta'lim
			Jami	jumladan:				
				Nazariy	Amaliy	Laboratoriya		
1	Psixokorreksiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari	2	2	2				
2	Psixokorreksiyaning nazariy asoslari va rivojlanish tarixi	2	2	2				
3	Psixokorreksiyaning tamoyillari va asosiy yo'nalishlari	2	2	2				
4	Psixologik ta'sir usullarining umumiy tavsifi	2	2	2				
5	Individual psixokorreksiya metodlari	2	2		2			
6	Guruh psixokorreksiya metodlari	2	2		2			
7	Emotsional buzilishlarni psixokorreksiya qilish	4	4		2	2		
8	Xulq-atvor og'ishlarini korreksiya qilish texnologiyalari	4	4		2	2		
9	Kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etish usullari	4	4		2	2		
10	Moslashuv muammolarini psixokorreksiya qilish	4	4		2	2		
11	Psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish asoslari	6	6	2	4			
12	Psixokorreksion mashg'ulotlarni rejalashtirish	4	4		4			
13	Psixokorreksion trening mashqlarini qo'llash	4	4		4			
14	Art-terapiya elementlaridan foydalanish	6	6		2	4		
15	Relaksatsiya va stressni boshqarish texnikalari	6	6		2	4		

16	Psixokorreksiyada rolli o'yinlar va keyslar	4	4		4		
17	Psixokorreksion ish samaradorligini baholash	4	4			4	
18	Natijalar monitoringi va tahlil qilish	4	4			4	
19	Psixokorreksion jarayonda hujjatlashtirish va hisobot yuritish	6	6	2	4		
<b>Jami:</b>		<b>72</b>	<b>72</b>	<b>12</b>	<b>36</b>	<b>24</b>	

### III. FAN BIRLIGINING MAZMUNI

#### 3.1. Nazariy mashg'ulotlar mazmuni

##### **1 mavzu: Psixokorreksiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.**

Psixokorreksiya fanining mohiyati, uning amaliy psixologiya tizimidagi o'rni va ahamiyati. Psixokorreksiya fanining predmeti sifatida shaxs rivojlanishidagi psixologik qiyinchiliklar, xulq-atvor og'ishlari va emotsional buzilishlarni korreksiya qilish jarayonlari. Psixokorreksiyaning asosiy maqsadi, shaxsning psixologik holatini barqarorlashtirish, moslashuv qobiliyatini oshirish va shaxsiy resurslarini rivojlantirish. Psixokorreksiya fanining vazifalari, muammolarni aniqlash, korreksion ta'sir usullarini tanlash va natijalarni baholash masalalari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

##### **2 mavzu: Psixokorreksiyaning nazariy asoslari va rivojlanish tarixi.**

Psixokorreksiyaning shakllanish tarixi, uning psixoanaliz, bixeviorizm, geshtalt va gumanistik psixologiya kabi ilmiy yo'nalishlar bilan bog'liqligi. Psixokorreksiyaning nazariy asoslari sifatida shaxs rivojlanishi, xulq-atvor shakllanishi va psixik jarayonlar haqidagi konsepsiyalar. Zamonaviy psixokorreksiya maktablari va ularning amaliyotdagi qo'llanilishi, milliy va xalqaro tajribalar yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

##### **3 mavzu: Psixokorreksiyaning tamoyillari va asosiy yo'nalishlari.**

Psixokorreksion jarayonni tashkil etishda asos bo'ladigan ilmiy va metodologik tamoyillar. Insonparvarlik, individual yondashuv, tizimlilik, maxfiylik va ixtiyoriylik tamoyillari. Psixokorreksiyaning asosiy yo'nalishlari, emotsional, xulqiy, kognitiv va kommunikativ sohalaridagi korreksion ishlar mazmuni. Har bir yo'nalishning maqsadi va amaliyotda qo'llanilish xususiyatlari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

**4 mavzu: Psixologik ta'sir usullarining umumiy tavsifi.** Psixokorreksiya jarayonida qo'llaniladigan psixologik ta'sir usullarining umumiy klassifikatsiyasi. Verbal va noverbal ta'sir usullari, ishontirish, suggestiya, trening elementlari, rolli o'yinlar va psixotexnik mashqlar mazmuni. Ta'sir usullarining shaxs psixikasiga ta'sir etish mexanizmlari va ularni to'g'ri qo'llash shartlari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

##### **11 mavzu: Psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish asoslari.**

Psixokorreksion dastur tuzishning nazariy va amaliy asoslari. Dasturni ishlab

chiqish bosqichlari, diagnostika, maqsad qo'yish, vazifalarni belgilash, usullarni tanlash va natijani prognoz qilish jarayonlari. Turli yosh va muammo guruhlari uchun individual va guruhiy korreksion dasturlarni tayyorlash xususiyatlari yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

**19 mavzu: Psixokorreksion jarayonda hujjatlashtirish va hisobot yuritish.** Psixokorreksion faoliyatni to'g'ri tashkil etishda hujjatlashtirishning ahamiyati. Korreksion dasturlar, protokollar, kuzatuv varaqalari va hisobot shakllarini tuzish qoidalari. Amalga oshirilgan ishlar natijalarini tahlil qilish, xulosa chiqarish va kasbiy hisobot tayyorlash tartibi yuzasidan ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

### **3.2. Amliy mashg'ulotlar mazmuni**

**5 mavzu: Individual psixokorreksiya metodlari.** Individual psixokorreksion ishni tashkil etish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish. Mijozning muammosini aniqlash, psixologik suhbat o'tkazish, ehtiyoj va qiyinchiliklarni belgilash. Juftliklarda ishlab, psixolog va mijoz rollarini almashtirib, maslahat jarayonini modellashtirish. Suhbat olib borish texnikasi, savol berish, aniqlashtirish, hissiy holatni kuzatish va fikrni qayta yo'naltirish. Aniq holat uchun individual korreksion reja tuzish, seanslar ketma-ketligini belgilash va natijani baholash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**6 mavzu: Guruhiy psixokorreksiya metodlari.** Guruhiy psixokorreksion ish shakllarini tashkil etish va boshqarish. Guruhni shakllantirish, ishtirokchilarni faollashtirish, ishonch muhitini yaratish va guruh qoidalari ishlab chiqish. Kichik guruhlarda turli psixokorreksion mashqlar, muhokamalar va trening elementlarini o'tkazib ko'rish. Guruh ichidagi munosabatlar, emotsional muhit va ishtirokchilar faolligini kuzatish hamda tahlil qilish ko'nikmalari rivojlantirish. Guruhdagi qarshiliklar, passivlik yoki nizoli holatlarda trenerning harakat strategiyalari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**7 mavzu: Emotsional buzilishlarni psixokorreksiya qilish.** Emotsional holatlarni aniqlash va ularni yumshatishga qaratilgan psixokorreksion usullarni qo'llash. Qo'rquv, tushkunlik, ichki zo'riqish va hissiy beqarorlik kabi holatlar keyslar asosida tahlil qilish. O'z emotsional holatini aniqlash testlarini o'tkazish va natijalarni tahlil qilish. Relaksatsiya, vizualizatsiya, his-tuyg'ularni verbal ifodalash, "emotsiya kundaligi" va kognitiv qayta baholash kabi mashqlar amaliy bajarish. Turli yoshdagi shaxslarda uchraydigan emotsional muammolar bilan ishlash bo'yicha misollar asosida korreksion yondashuvlar ishlab chiqish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**8 mavzu: Xulq-atvor og'ishlarini korreksiya qilish texnologiyalari.** Muammoli va og'ishgan xulq-atvorni aniqlash hamda korreksiya qilishga qaratilgan amaliy usullarni qo'llash. Aggressivlik, impulsivlik, yopiqlik, salbiy odatlar va ijtimoiy me'yorlarga zid xulq namunalari tahlil qilish. Real keyslar asosida xulq-atvor sabablari aniqlanib, korreksion ta'sir rejasini tuzish. Bixevioral usullar - rag'batlantirish, modellashtirish, ijobiy mustahkamlash, qayta shartlash va o'z-o'zini nazorat qilish mashqlarini amalda bajarish. Mashg'ulot davomida

muayyan vaziyatga mos korreksion ssenariy ishlab chiqish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**9 mavzu: Kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etish usullari.** Muloqot jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar, o'z fikrini ifoda eta olmaslik, tinglamaslik, tortishuv, tushunmovchilik va yopiqlik holatlarini tahlil qilish. Turli muloqot vaziyatlarini rolli o'yinlar orqali ijro etib, samarali kommunikatsiya strategiyalarini sinab ko'rish. Faol tinglash, "men-xabarlar", empatik munosabat, aniq savol berish va konfliktsiz muloqot texnikasi amaliy mashqlarda qo'llash. Muloqotdagi psixologik to'siqlarni aniqlash va ularni yengish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**10 mavzu: Moslashuv muammolarini psixokorreksiya qilish.** Yangi muhitga, jamoaga yoki hayotiy sharoitga moslashishda uchraydigan qiyinchiliklar bilan ishlash usullari qo'llash. Ta'lim tashkiloti, ish joyi, oilaviy o'zgarishlar yoki ijtimoiy muhit almashuvi bilan bog'liq holatlarni keyslar orqali tahlil qilish. Psixologik qo'llab-quvvatlash, stressni yengish, yangi rolni qabul qilish va ijtimoiy faollikni oshirish bo'yicha amaliy mashqlar bajarish. Moslashuv darajasini baholash va individual korreksion reja tuzish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**11 mavzu: Psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish asoslari.** Muayyan psixologik muammoga yo'naltirilgan psixokorreksion dasturni mustaqil ishlab chiqish. Avvalo, muammo tahlil qilinib, maqsad va vazifalar belgilash. Keyin ishtirokchilar korreksion mashg'ulotlar mazmuni, davomiyligi, usullari va kutilgan natijalarni rejalashtirish. Tayyorlangan dasturlar guruhda taqdim etiladi, muhokama qilinadi va mutaxassis nuqtai nazaridan baholash. Dastur tuzishda tizimli yondashuv va individuallashtirish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**12 mavzu: Psixokorreksion mashg'ulotlarni rejalashtirish.** Bitta psixokorreksion sessiyani to'liq rejalashtirishni o'rganish. Mashg'ulotning kirish, asosiy va yakuniy qismlarini tuzish, vaqt taqsimoti, mashqlar ketma-ketligi va refleksiya bosqichini belgilash. O'zlari tuzgan rejalarni amalda sinab ko'rish. Mashg'ulot samaradorligini oshirish uchun qaysi usul va mashqlarni qay tarzda qo'llash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**13 mavzu: Psixokorreksion trening mashqlarini qo'llash.** Turli psixokorreksion trening mashqlarini tanlash va o'tkazish. Emotsional bo'shish, ishonchni rivojlantirish, o'z-o'zini anglash, muloqotni yaxshilash va stressni kamaytirishga qaratilgan mashqlar bajarish. Har bir mashqning maqsadi, qo'llash sharoiti va natijasini muhokama qilish. Mashqlarni ishtirokchilar xususiyatiga moslashtirish usullarini ishlab chiqish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**14 mavzu: Art-terapiya elementlaridan foydalanish.** Amaliy mashg'ulotda art-terapiyaning turli usullari, rasm chizish, kollaj tuzish, ranglar bilan ishlash, ramziy tasvirlar yaratish orqali psixologik holatni tahlil qilish va korreksiya qilish mashqlari o'tkazish. O'z his-tuyg'ularini tasviriy ifoda orqali namoyon qilish va tahlil qilishni o'rganish. Art-terapiyadan bolalar, o'smirlar va kattalar bilan ishlashda foydalanish imkoniyatlari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**15 mavzu: Relaksatsiya va stressni boshqarish texnikalari.** Stress holatini kamaytirish va emotsional barqarorlikni saqlashga qaratilgan texnikalarni amalda bajarish. Chuqur nafas olish, mushaklarni bosqichma-bosqich bo'shatish, vizualizatsiya, diqqatni jamlash va meditatif mashqlar qo'llash. Mashg'ulot davomida stress manbalarini aniqlash va ularga qarshi individual kurash strategiyalari ishlab chiqish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**16 mavzu: Psixokorreksiya roli o'yinlar va keyslar.** Turli psixologik muammolarga oid keyslar va roli o'yinlar tashkil etish. Psixolog, mijoz va kuzatuvchi rollarini bajarib, psixokorreksion jarayonni modellashtirish. Muammoni aniqlash, muloqot olib borish, korreksion ta'sirni tanlash va natijani baholash bosqichlari amaliy tarzda o'tkazish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**19 mavzu: Psixokorreksion jarayonda hujjatlashtirish va hisobot yuritish.** Psixokorreksion ish natijalarini hujjatlashtirish bo'yicha ko'nikmalar shakllantirish. Mijoz kartasi, kuzatuv protokoli, korreksion reja, mashg'ulot bayonnomasi va yakuniy hisobotlarni to'ldirishni amaliy bajarish. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va kasbiy hujjatlarni rasmiylashtirish tartibini qo'llash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

### **3.3. Laboratoriya mashg'ulotlar mazmuni**

**7 mavzu: Emotsional buzilishlarni psixokorreksiya qilish.** Emotsional buzilishlarni aniqlash va ularga mos psixokorreksion usullarni tanlash. Turli emotsional holatlar - xavotir, qo'rquv, tushkunlik, asabiylik kabi holatlarni aniqlashga qaratilgan diagnostik testlar va so'rovnomalar. Olingan natijalar tahlil qilinib, har bir holat uchun korreksion mashqlar rejalashtirish. Modellashtirilgan vaziyatlarda emotsional holatni barqarorlashtirishga qaratilgan texnikalarni tanlaydilar va ularning natijalarini qayd etadilar.

**8 mavzu: Xulq-atvor og'ishlarini korreksiya qilish texnologiyalari.** Muammoli xulq-atvor namunalarini aniqlash va ularni tahlil qilish. Keyslar asosida agressivlik, yopiqlik, impulsivlik, salbiy odatlar kabi xulq-atvor og'ishlarini tahlil qilish. Diagnostik jadvallar tuzilib, og'ish sabablari va korreksion ta'sir rejasi ishlab chiqish. Tanlangan texnologiyalar bo'yicha korreksion dastur loyihasi tuziladi va uning ehtimoliy natijalari baholanadi.

**9 mavzu: Kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etish usullari.** Muloqotdagi muammolarni aniqlashga qaratilgan diagnostik usullar. Turli muloqot vaziyatlarini tahlil qilib, kommunikatsiyadagi to'siqlar - tinglamaslik, o'z fikrini ifoda eta olmaslik, tortishuvga moyillik kabi holatlarni baholash. Kommunikativ qobiliyatni o'lchash vositalari qo'llanib, natijalar jadvallarga kiritiladi, shu asosda korreksion mashqlar tanlanadi va samaradorligi tahlil qilinadi.

**10 mavzu: Moslashuv muammolarini psixokorreksiya qilish.** Yangi muhitga moslashish qiyinchiliklarini baholash. Moslashuv darajasini aniqlovchi testlar va kuzatuv usullari. Olingan ma'lumotlar asosida shaxsning qiyinchiliklari tahlil qilinib, individual psixokorreksion choralar rejasi. Mashg'ulotda moslashuv dinamikasini kuzatish va baholash ko'nikmalari shakllantiriladi.

**14 mavzu: Art-terapiya elementlaridan foydalanish.** Art-terapiya elementlarini qo‘llab, emotsional holatni o‘rganish va tahlil qilish. Rasm chizish, simvolik tasvirlar yaratish, rang tanlash. Yaratilgan ishlarni tahlil qilish, ishtirokchining emotsional holati va ichki kechinmalari. Art-terapevtik mashqlarning psixokorreksion imkoniyatlari baholanadi.

**15 mavzu: Relaksatsiya va stressni boshqarish texnikalari.** Stress darajasini aniqlash va relaksatsiya texnikalarining samaradorligini baholash. Stressga oid testlar o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish. Turli relaksatsiya usullari - nafas olish, mushaklarni bo‘shatish, vizualizatsiya mashqlari, ularning ta’siri. Mashg‘ulot yakunida har bir usulning samaradorligi bo‘yicha taqqoslama tahlil o‘tkaziladi.

**17 mavzu: Psixokorreksion ish samaradorligini baholash.** Psixokorreksion ish natijalarini baholash uchun diagnostik vositalar. Oldingi va keyingi holatni solishtirish uchun baholash jadvallari, so‘rovnomalar va testlar. Namunali holatlar asosida ma’lumotlar. Korreksion jarayonning maqsadga erishish darajasi, ishtirokchidagi o‘zgarishlar va psixologik holatdagi dinamika baholanadi.

**18 mavzu: Natijalar monitoringi va tahlil qilish.** Psixokorreksion jarayon natijalarini monitoring qilish usullari. Ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish. Monitoring varaqalari, kuzatuv protokollari va tahliliy hisobotlar tayyorlash. Korreksion jarayonning qisqa va uzoq muddatli natijalarini baholash, dinamik o‘zgarishlarni aniqlash va xulosalar chiqarish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

#### **IV. NAZORAT SAVOLLARI**

1. Psixokorreksiya tushunchasi nima?
2. Psixokorreksiya fanining predmeti nimadan iborat?
3. Psixokorreksiyaning asosiy maqsadi qanday?
4. Psixokorreksiyaning vazifalari qaysilar?
5. Psixokorreksiyaning amaliy psixologiyadagi o‘rni nimada?
6. Psixokorreksiyaning nazariy asoslari nimalarga tayanadi?
7. Psixokorreksiyaning rivojlanish tarixi qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?
8. Psixokorreksiyaning asosiy tamoyillari qaysilar?
9. Individual yondashuv tamoyilining mazmuni nimada?
10. Psixokorreksiyaning asosiy yo‘nalishlari qaysilar?
11. Psixologik ta’sir usullari deganda nima tushuniladi?
12. Verbal va noverbal ta’sir usullari o‘rtasida qanday farq bor?
13. Individual psixokorreksiya metodlari qaysilar?
14. Guruhiy psixokorreksiyaning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
15. Emotsional buzilishlarni psixokorreksiya qilishda qanday yondashuvlar qo‘llaniladi?
16. Xulq-atvor og‘ishlarini korreksiya qilish texnologiyalari nimalardan iborat?
17. Kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etish usullari qaysilar?
18. Moslashuv muammolarini psixokorreksiya qilish qanday amalga oshiriladi?
19. Psixokorreksion dastur nima?
20. Psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish bosqichlari qaysilar?

21. Psixokorreksion mashg‘ulotlarni rejalashtirishda nimalar hisobga olinadi?
22. Psixokorreksion trening mashqlari qanday tanlanadi?
23. Art-terapiyaning psixokorreksiyadagi ahamiyati nimada?
24. Relaksatsiya texnikalari qanday qo‘llaniladi?
25. Stressni boshqarish texnikalariga nimalar kiradi?
26. Psixokorreksiyada rolli o‘yinlar qanday ahamiyatga ega?
27. Keyslar asosida psixokorreksion ish qanday tashkil etiladi?
28. Psixokorreksion jarayonda hujjatlashtirish nima uchun zarur?
29. Psixokorreksion ish samaradorligini baholash qanday amalga oshiriladi?
30. Natijalar monitoringi va tahlil qilishning ahamiyati nimada?

## **V. O‘QITISH VOSITALARI**

1. Doska;
2. Flipchart qog‘ozi;
3. Qog‘oz A4 formatli yetarlicha;
4. Markerlar;
5. Tarqatma materiallar;
6. Multimediya to‘plami (kompyuter, videoproektor, elektron doska, monitor).

## **VI. FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI**

### **Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 23-iyulda “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘RQ-989-son Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrda “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-190-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrda “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-316-son Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyulda “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 577-son Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevralda “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta

tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-son Qarori.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. М.Алиева, Е.Трощикина “Тренинг развития жизненных целей” СПб: “Речь”, 2002.
2. Бурнард Филип “Тренинг навыков консультирования”. Питер, 2002.
3. Н.Н.Васильев “Тренинг преодоления конфликтов”. СПб: “Речь”, 2002.
4. И.Вачков “Основы технологии группового тренинга. Психотехники”. Изд-во “Ось-89”, 2000.
5. С.В.Гиппиус “Тренинг развития креативности”. СПб: “Речь”, 2001.
6. Д.У.Джонсон “Тренинг общения и развития”. М., “Прогресс”, 2000.
7. Э.Кристофер, Л.Смит “Тренинг лидерства”. СПб: “Питер”, 2001.
8. Микалко Майкл “Тренинг интуиции”. Питер, 2001.
9. С.В.Петрушин “Психологический тренинг в многочисленной группе”. М., 2000.
10. Рейс Фил, Смит Бренла “500 лучших советов тренеру”, Питер, 2001.
11. Дж.Стюарт “Тренинг организационных изменений”. СПб, Питер, 2001.
12. Sh.T.Halilova, J.A.Po‘latov Ijtimoiy psixotrening asoslari T: 2013 yil O‘MKХТТКМО va O‘QTI.
13. Дейноу Ш. Сам себе психотерапевт. СПб, Питер., 2001.
14. Джозеф Морено. Включи сво. Внутреннюю музыку. Музыкальная психотерапия и психодрама. М.: “Когито-центр”, 2009.
15. Г.Лейтц Сыграть свою жизнь на сцене. М.: Академический Проект, 2008.
16. Б.Эрлахер, К.Йорда “Исцеляющая встреча. От психодраммы к индивидуальной терапии”. К.: Ника-Центр, Эльга, 2004.
17. Я.Морено “Психодрама”. М.: Эксмо-Пресс, 2001.
18. А.Шутценбергер Психодрама. Издатель. “Психотерапия”, 2007.
19. И.Ялом “Теория и практика групповой психотерапии”. Питер, 2000.

### **Internet saytlar**

1. [www.library.com](http://www.library.com)
2. [www.expert.psychology.ru](http://www.expert.psychology.ru)
3. [www.referat.ru](http://www.referat.ru)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.psycho.all.ru](http://www.psycho.all.ru)
6. [www.psy.piter.com](http://www.psy.piter.com).
7. [http: www.lib.psichology.msu.ru](http://www.lib.psichology.msu.ru)
8. [www.psychology.net.ru](http://www.psychology.net.ru)